XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2023 - yil 23 - mart VI-56-47-8-115-K/23 Muzrabot tuman hokimligi

Tumanning ayrim mahallalaridagi nomsiz ko‘chalarni va qabristonlarning nomlarini o‘zgartirish va tasdiqlash to‘g‘risida

“Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 10-oktabrdagi 08-08-794-son xati va yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanning ayrim mahallalaridagi nomsiz ko‘chalarni nomlash hamda nomlari o‘zgarayotgan qabristonlarning nomlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (Z.Qodirov), tuman qurilish bo‘limi (B.Norkeldiyev), Davlat kadastrlar palatasi Muzrabot tumani filiali (Sh.Muradov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan hamda tasdiqlangan ko‘chalar va qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (Sh.Narmuratov) nomlari o‘zgargan hamda tasdiqlanayotgan mahallalar va ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (B.Norkeldiyev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik ob’yektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Norqobilov)ga mahalla fuqarolar yig‘inlari rahbar-xodimlari bilan bir oy muddatda Qonun talablari asosida nomlari tasdiqlangan, o‘zgartirilgan ko‘chalarni xatlab chiqilishini;

nomlari tasdiqlangan ko‘chalar va qabristonlarga belgilangan tartibda ko‘rsatgich belgi va peshlavhalarni o‘rnatilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qarorni tuman hokimligi axborot xizmati (J.Abdurasulov), “Muzrabot” gazetasi tahririyati (A.Yuldashev)lar tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda ommoviy ahborot vositalarida keng yoritish vazifalari yuklatilsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Norqobilov), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Tangirov) zimmalariga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **T.Tangirov**

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2023 yil 23 martdagi
VI-56-47-8-115-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi nomsiz ko‘chalar va nomlari o‘zgarayotgan qabristonlarni nomlash haqida

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	2	3	4	5
1.	**Ko‘cha**	“Bodomzor” MFY	Nomsiz	**Toshkent**
2.	**Ko‘cha**	“Madaniyat” MFY	Nomsiz	**Saroy**
3.	**Ko‘cha**	“ Madaniyat ” MFY	Nomsiz	**Yorqin**
4	**Ko‘cha**	“Guliston” MFY	Nomsiz	**Ahilobod**
5	**Ko‘cha**	“ Guliston ” MFY	Nomsiz	**Bog‘aro**
6	**Ko‘cha**	“Fayziobod” MFY	Nomsiz	**Nurobod**
7	**Ko‘cha**	“ Fayziobod ” MFY	Nomsiz	**Yangishahar**
8	**Ko‘cha**	“ Yakkatol ” MFY	Nomsiz	**Kengguzar**
9	**Ko‘cha**	“ Yakkatol ” MFY	Nomsiz	**Hamal**
10	**Ko‘cha**	“ Yakkatol ” MFY	Nomsiz	**Farog‘at**
11	**Ko‘cha**	“ Yakkatol ” MFY	Nomsiz	**Anbar Otin**
12	**Ko‘cha**	“Chegarachi” MFY	Nomsiz	**Binokor**
13	**Ko‘cha**	“ Chegarachi ” MFY	Nomsiz	**Yangimakon**
14	**Ko‘cha**	“ Chegarachi ” MFY	Nomsiz	**Ishonch**
15	**Ko‘cha**	“ Moxiyat” MFY	Nomsiz	**Sunbulsoy**
16	**Ko‘cha**	“ Moxiyat ” MFY	Nomsiz	**Gulirayhon**
17	**Ko‘cha**	“ Moxiyat ” MFY	Nomsiz	**Xayrobod**
18	**Ko‘cha**	“ Moxiyat ” MFY	Nomsiz	**Zarchaman**
19	**Ko‘cha**	“ Moxiyat ” MFY	Nomsiz	**Oltinzamin**
20	**Ko‘cha**	“ Moxiyat ” MFY	Nomsiz	**Zebunniso**
21	**Ko‘cha**	“ Moxiyat ” MFY	Nomsiz	**Yurtparvar**
22	**Ko‘cha**	“Dehqonobod” MFY	Nomsiz	**Charog‘on**
23	**Ko‘cha**	“Yurtim jamoli” MFY	Nomsiz	**Ehtirom**
24	**Ko‘cha**	“ Yurtim jamoli ” MFY	Nomsiz	**Nurjahon**
25	**Ko‘cha**	“Yangihayot” MFY	Nomsiz	**Zokirjon Furqat**
26	**Ko‘cha**	“ Yangihayot ” MFY	Nomsiz	**Mash’al**
27	**Ko‘cha**	“ Yangihayot ” MFY	Nomsiz	**Jiydali**
28	**Ko‘cha**	“Navro‘z” MFY	Nomsiz	**Marvarid**
29	**Ko‘cha**	“ Navro‘z ” MFY	Nomsiz	**Zartepa**
30	**Ko‘cha**	“ Navro‘z ” MFY	Nomsiz	**Qutlug‘yo‘l**
31	**Ko‘cha**	“ Navro‘z ” MFY	Nomsiz	**Diydor**
32	**Ko‘cha**	“ Navro‘z ” MFY	Nomsiz	**Musaffo**
33	**Ko‘cha**	“Shaffof” MFY	Nomsiz	**Oydin**
34	**Ko‘cha**	“Muzrabot darvoza” MFY	Nomsiz	**Humo**
35	**Ko‘cha**	“ Muzrabot darvoza ” MFY	Nomsiz	**Matonat**

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif
36	**Ko‘cha**	“ Muzrabot darvoza ” MFY	Nomsiz	**Barokat**
37	**Ko‘cha**	“ Muzrabot darvoza ” MFY	Nomsiz	**Yog‘du**
38	**Ko‘cha**	“Buyuk ipak yo‘li” MFY	Nomsiz	**Polvontosh**
39	**Ko‘cha**	“Mohiyat” MFY	Nomsiz	**Bog‘bonlar**
40	**Ko‘cha**	“Yurtim jamoli” MFY	Nomsiz	**Bog‘i Behisht**
41	**Qabriston**	“Bodomzor” MFY	Do‘stlik	**Murchlisoy**
42	**Qabriston**	“Bodomzor” MFY	Avlod	**Archamozor**
43	**Qabriston**	“Madaniyat” MFY	Usta Qurbon	**Ustamirishkor**
44	**Qabriston**	“Tong yulduzi” MFY	Er Jahongir ota	**Muzrabotota**
45	**Qabriston**	“Yangidiyor” MFY	Xudoyberdi bobo	**Xoshman**
46	**Qabriston**	“Nurlihayot” MFY	Afg‘on ota	**Do‘stmuhammad hoji**